



MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

№4

ILMIY ELEKTRON JURNALI





ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovaциyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma’naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta’lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne’matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymuratov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta’lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu’min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti

professori (Malayziya qirolligi)

Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyevich – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Teshayev Zavqiddin Jabbor o’g’li – Qarshi davlat universiteti Turizm va marketing kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

Hazratqulov Shahboz Boboqul o’g’li – Qarshi davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li – mas’ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O’zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

“**Moliyaviy texnologiyalar**” ilmiy elektron jurnali 23.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan. Litsenziya raqami: **№049864**

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

MUNDARIJA

Ollokulova Feruza Mansurovna	Uzoq muddatli davrda davlat-xususiy sheriklik rivojlanishning muqobil ssenariylari	7
Умарова Зумрад Низомиддин қизи	Консолидациялашган молиявий ҳисоботларни тузиш: тамойиллар, усуллар ва замонавий ёндашувлар	13
Sayipov Begzod Rahimovich	Valyuta kursi va mehnat bozori barqarorligi o‘rtasidagi makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlashda monetar siyosatning roli	25
Sharipov G'ulomjon Qarshi o'g'li	Qashqadaryo viloyatida yashil iqtisodiyot rivojlanishining zamonaviy holati va rivojlanish istiqbollari	32
Кабилова Шахноза Жураевна	Организационно-управленческий механизм развития сферы услуг в малом бизнесе (на примере Кашкадарьинской области)	38
Xamdamov Sardor Farmon o‘g‘li	Davlat xaridlarini moliyaviy tartibga solishning xorijiy tajribasi va undan milliy amaliyotda foydalanish imkoniyatlari	43
Primkulova Zilola Abrorovna	Xususiy tibbiyot tashkilotlarida xarajatlar buxgalteriya hisobini takomillashtirishning nazariy asoslari	48
Kilichev Alisher Akramovich	Mavsumiy ishlab chiqarishni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning xorijiy tajribasi va undan O‘zbekistonda foydalanish imkoniyatlari	52
Vaisov Dilshod Ibodullayevich	Xorijiy amaliyotda kichik biznes subyektlari moliyaviy raqobatbardoshligini rivojlantirishning integratsiyalashgan institutsional yondashuvlari	57
Nematullayev Hamidullo Azizillo o‘g‘li	Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobini transformatsiyalash va MHXSga o‘tish istiqbollari	65
Мурадов Баҳром Акрамжанович	Темир йўл соҳасида инновацион инфратузилмани ривожлантириш механизмлари	72
Адилов Рустам	Модели кредитного скоринга на основе больших данных: влияние на рост выручки финтех-компаний	78
Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	Investitsiya muhitini qulaylashtirish orqali hududiy investitsiya mexanizmini faollashtirish	84
Саттаров Тулкин Абдихалилович	Ишлаб чиқариш харажатларининг корхоналар молиявий ҳолатига таъсири	92
Kholikov Khamidulla	The current state of government securities market operations in Uzbekistan's financial market and existing problems	101
Mahmudov Fayzulla Murodullayevich	Mintaqa iqtisodiy rivojlanishida ijtimoiy soha tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	113
Uralov Farruh Abdurazzoqovich	Hududiy sanoat klasterlarini rivojlantirish strategiyasining baholanishi	119
Anvarova Lobarxon Sherzod qizi	Big Data va analitik platformalar asosida qaror qabul qilish tizimini rivojlantirish	125
Tojimurodov Shohzod	Mamlkat aholisining bank kreditlari bo‘yicha qarz yuki tahlili va uni optimallashtirish yo‘llari	131
Doniyev Shahob O‘tkir o‘g‘li	Iqtisodiy rivojlanish jarayonlarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning tutgan roli hamda ahamiyati	137
Razikova Nozima Erkin qizi	Biznes subyektlarini moliyalashtirish asosida aholi bandligini ta’minlash	142
Назарова Дияра	Совершенствование цифровых подходов к оценке кредитоспособности хозяйствующих субъектов в коммерческих банках Республики Узбекистан	153
Mirmahmudova Nozima Xusniddinovna	O‘zbekiston kapital bozorida sukukka institutsional investorlarni jalb etish istiqbollari	160
Djamalov G‘ofir Oribjanovich	Bank aktivlari sifatini oshirishda muammoli qarzlar va garov ta’minotini boshqarish usullari	167
Vaxabov Bobur Alisherovich	Raqamli to‘lov infratuzilmasida moliyaviy xatarlarni boshqarish va axborot xavfsizligini ta’minlash mexanizmlari	179
Abdurazakov Shavkat Shokirdjanovich	Turizm klasterlari faoliyatini moliyaviy va soliq mexanizmlari orqali iqtisodiy rag'batlantirishni takomillashtirish	191

Qurbanov Ulug‘bek Erkinovich	Raqamli iqtisodiyot sharoitida aholi daromadlarini boshqarish mexanizmlari	202
Salomov Abdusalom Ismatovich	Hududiy infratuzilma ta’minotiga “Yashil” standartlarni joriy etish yo‘llari	207
Орипов Ильхом Абдуллаевич	Проблемы формирования национальной системы зеленого финансирования в странах с переходной экономикой	214
Tulyaganov Kudratilla Asatullayevich	O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini transformatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlari	225
Abduraxmanova Muqaddas Toxtasinovna	Temir yo‘l transporti korxonalarida ekologik-iqtisodiy samaradorlikni yuksaltirishning tashkiliy-iqtisodiy va innovatsion mexanizmlari	232
Uralov Elshod Sirojiddin o’g’li	Mintaqalarda institutsional-iqtisodiy hamkorlikning shakllari va rivojlanish xususiyatlari	240
Qodirov Bahodir Qudratovich	Bevosita soliq solishni optimallashtirish va yashillashtirish masalalari	245
Agabekyan Roza Samvelovna	O‘zbekistonda loyihaviy moliyalashtirish asosida investitsiya resurslarini jalb qilish mexanizmini takomillashtirish	251
Ерманова Камила Рустамовна	Цифровые финансовые инструменты в системе финансирования креативных индустрий: переоценка возможностей и ограничений	258
Fayziyeva Muyassarzoda Xancharovna	Raqamli moliyaviy xizmatlar samaradorligini baholash metodlarining rivojlanish bosqichlari	267
Kalandarov Jamolbek Ravshonovich	O’zbekistonda mikro, kichik va o’rta biznesni kreditlash dinamikasi: 2026 yil yarim yillik natijalari va Silk Road Finance & Technology forum kontekstidagi tahlil	274
Ergashev Rustam Rajabovich	Ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishning huquqiy boshqaruv arxitekturasini takomillashtirish	280
Sulaymonov Iskandar Boxodir o‘g‘li	Venchur kapital jalb etish samaradorligi indeksi (VKJSI): davlat va xususiy kapital multiplikativ samaradorligini baholash modeli	287
Toshpo‘latov Shohruh Sobirjon o‘g‘li	Milliy iqtisodiyotda ijtimoiy himoya tizimini moliyalashtirishning institutsional asoslari va moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish	294
Salamov Islom Tashkazakovich	Banklarning transformatsion jarayonlarini ekonometrik tahlili	304
Babaxanova Nozima Saidakbarovna	O‘zbekiston fond bozorida “Xalq IPO”si mexanizmlarini takomillashtirish va institutsional investorlar ishtirokini kengaytirish yo‘llari	312
Radjabova Malikaxon	Elektron tijorat faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanishning zaruriyati va ahamiyati	323
Sultanova Gulshira Alimbetovna	Suv taqchilligi sharoitida sholichilik tarmog‘ining innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy yo‘nalishlari (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)	332
Jumaniyazov Inojon Turayevich	Suveren fondlar samaradorligini baholashning truman-bagnall metodologiyasi	339
Abdullayev Dilmurod Toxirmirzayevich	Davlat maqsadli jamg‘armalari xarajatlari ustidan davlat moliyaviy nazoratini o‘tkazishni takomillashtirish	350
Abdushayitov Abdumannobbek Abdumutal o‘g‘li	Tashabbusli budjet xarajatlari ustidan davlat moliyaviy nazoratini tashkil etish masalalari	357
Zokirov Sardor To‘lqin o‘g‘li	Hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda raqamli infratuzilmaning o‘rni	362
Asrorov Dalerjon Zafarovich	Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish masalalari	368

Umaraliyev Sanjar Sultonaliyevich	Hududlar investitsion muhit jozibadorligini baholashning zamonaviy metodologiyasi	374
Axmedova Nafisa Amirddin qizi	O‘zbekistonda agrooziq-ovqat ishlab chiqarish dinamikasi va uni innovatsion rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari	380
Zohidova Ruxsora Komiljon qizi	Jahon iqtisodiyotida islom moliyasi: asosiy tendensiyalar va rivojlanish istiqbollari	387
Iskandarova Munisa Hasan qizi	Elektron savdoda muddatli to‘lov munosabatlarini moliyaviy tartibga solish: xorijiy tadqiqotlar asosida qiyosiy tahlil	394
Ubaydullayeva Nargiza Ravshanovna	Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda riskni moliyalashtirish usullari va qayta sug‘urta: Markaziy Osiyo sharoiti	404
Xolmurotov Fozil Saribayevich	Xorazm viloyati eksport salohiyatini baholash: 2010–2024 yillar tendensiyalari va diversifikatsiya imkoniyatlari	415
Gofurjonova Musharrafkhon Shukhratjon kizi	The significance of cultural events and festivals in enhancing tourism attractiveness	424
Xasanova Lola Mamasharifovna	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlash amaliyotini takomillashtirish	431
Умаров Умид Панжиевич	Жамоатчиликнинг бюджет жараёнида иштироки ва назоратининг иқтисодий самарадорлигини ошириш йўллари	436
Юсупов А.Т.	Илмий-технологик ва иқтисодий хавфсизлик тизимида олий малакали илмий ва илмий-педагог кадрлар аттестацияси хавфсизлиги (методологик, услубий ва амалий жиҳатлари)	445
Eldor Samandarov	Circular economy, digital technologies and sme competitiveness: lessons from Germany for Uzbekistan	453
Shukurullayev Davron Lutfullo o’g’li	O‘zbekistonda yashil loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari	461
Iskandar Samandarov	Data-driven strategic management, artificial intelligence and organizational resilience: lessons from a Czech service firm for Uzbekistan	479
Raxmatullaev Bobir Chorshamiyevich	Hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish omillari va takomillashtirish yo‘nalishlari	488
Юсупов Бехзод Юсуп угли	Роль современных финансовых технологий в повышении эффективности банковского сектора Узбекистана: от цифрового охвата к дата-ориентированному корпоративному кредитному процессу	497
Inoyatov Mardonbek Mo‘min o‘g‘li	Oliy ta’lim muassasalarida ilmiy tadqiqot loyihalari va tijoratlashtirish faoliyati buxgalteriya hisobi hamda ichki auditini takomillashtirish yo‘nalishlari	511
Abdurahmonov Tohir Shavkatovich	Bolalar sog‘lomlashtirish oromgohlarini boshqarishning xorijiy tajribasini O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish mexanizmlari	517
Karimov Komiljon Ibrogimovich	Tijorat banklarida balans va balansdan tashqari moddalar kredit riskini boshqarishni takomillashtirish	523
Мансуров Обид Зайнидинович	Нефть-газ лойиҳаларида давлат ва инвестор манфаатларини мувофиқлаштиришнинг ижтимоий-молиявий механизмлари	532
Nasretdinova Shaxnoza Saidakmalovna	Sug‘urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini baholashning integral indeksi	546
Omonov Elyorbek Umarboy o‘g‘li	Tijorat banklarida faktoring xizmatlari shartlarini mijoz ehtiyojlariga moslashtirish: eksport faktoringida diskontni hisoblash va mijozlarni segmentlash	556
Sheraliyev Javoxirbek Jaxongir o‘g‘li	O‘zbekiston Respublikasida soliq siyosatini amalga oshirishdagi mavjud muammolar va ularni hal etish yo‘llari	563

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

TIJORAT BANKLARIDA FAKTORING XIZMATLARI SHARTLARINI MIJOZ EHTIYOJLARIGA MOSLASHTIRISH: EKSPORT FAKTORINGIDA DISKONTNI HISOBLASH VA MIJOZLARNI SEGMENTLASH

Omonov Elyorbek Umarboy o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0000-0002-5032-886X

Annotatsiya. *Maqolada tijorat banklarida faktoring xizmatlari shartlarini mijozlarning haqiqiy ehtiyojlariga moslashtirishning ikki yo‘nalishi ko‘rib chiqilgan. Birinchidan, eksport faktoringi bo‘yicha 180 kungacha bo‘lgan muddat uchun belgilangan qat’iy diskont stavkasi o‘rniga diskontni har bir operatsiya bo‘yicha haqiqatda foydalanilgan davr uchun hisoblash tartibi asoslangan. Ikkinchidan, mijozlarni debitorlik qarzdorligi hajmi, kechiktirilgan to‘lovli sotuv ulushi va aylanma mablag‘larga ehtiyoji asosida segmentlash mexanizmi taklif etilgan.*

Kalit so‘zlar: *eksport faktoringi, diskont stavkasi, haqiqiy moliyalashtirish davri, mijozlarni segmentlash, faktoringga ehtiyoj indeksi, kichik va o‘rta biznes.*

АДАПТАЦИЯ УСЛОВИЙ ФАКТОРИНГОВЫХ УСЛУГ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ К ПОТРЕБНОСТЯМ КЛИЕНТОВ: РАСЧЁТ ДИСКОНТА В ЭКСПОРТНОМ ФАКТОРИНГЕ И СЕГМЕНТАЦИЯ КЛИЕНТОВ

Омонов Элёрбек Умарбой угли
Независимый исследователь Ташкентского государственного экономического университета
ORCID: 0000-0002-5032-886X

Аннотация. *В статье рассмотрены два направления адаптации условий факторинговых услуг коммерческих банков к реальным потребностям клиентов. Обоснован порядок расчёта дисконта по экспортному факторингу за фактический период использования финансирования вместо фиксированной ставки на срок до 180 дней, а также предложен механизм сегментации клиентов на основе объёма дебиторской задолженности, доли продаж с отсрочкой платежа и потребности в оборотных средствах.*

Ключевые слова: *экспортный факторинг, дисконт, фактический период финансирования, сегментация клиентов, индекс потребности в факторинге, малый и средний бизнес.*

ADAPTING FACTORING SERVICE TERMS IN COMMERCIAL BANKS TO CUSTOMER NEEDS: DISCOUNT CALCULATION IN EXPORT FACTORING AND CUSTOMER SEGMENTATION

Omonov Elyorbek Umarboy ugli
Independent Researcher, Tashkent State University of Economics
ORCID: 0000-0002-5032-886X

Abstract. *The article examines two directions for adapting the terms of factoring services in commercial banks to clients’ actual needs. It substantiates calculating the export factoring discount for the period of financing actually used instead of a fixed rate for a term of up to 180*

days, and proposes a client segmentation mechanism based on the volume of receivables, the share of sales on deferred payment terms and working capital needs.

Keywords: *export factoring, discount rate, actual financing period, client segmentation, factoring need index, small and medium-sized businesses.*

Kirish

Korxonalarning aylanma mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojini o‘z vaqtida va yetarli darajada qoplash ularning uzluksiz ishlab chiqarish faoliyatini ta’minlash, moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda bozordagi raqobatbardoshligini oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun aylanma kapitalning yetarliligi ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblarni o‘z vaqtida amalga oshirish va joriy moliyaviy majburiyatlarni bajarishda alohida ahamiyat kasb etadi. Bozor munosabatlarining rivojlanishi, xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida savdo aloqalarining kengayishi hamda tovar va xizmatlarni kechiktirilgan to‘lov asosida realizatsiya qilish amaliyotining ortib borishi natijasida korxonalar moliyaviy resurslarining muayyan qismi debitorlik qarzlari shaklida muomaladan vaqtincha chiqib qolmoqda. Mazkur holat korxonalarning likvidlik darajasiga, pul oqimlari barqarorligiga va qisqa muddatli majburiyatlarini bajarish imkoniyatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Bunday sharoitda faktoring xizmatlari korxonalarning debitorlik qarzlarini muddatidan oldin pul mablag‘lariga aylantirish, aylanma kapital aylanishini jadallashtirish hamda moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish imkonini beruvchi zamonaviy moliyaviy instrument sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. An’anaviy bank kreditlaridan farqli ravishda, faktoring operatsiyalarida moliyalashtirishning asosiy manbai korxonaning mavjud debitorlik talablari bo‘lib, bu alohida garov ta’minotiga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirishi mumkin. Ayniqsa, eksport faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalar uchun faktoring xalqaro savdo operatsiyalarida yuzaga keladigan to‘lovlarni kechiktirish, kontragentlarning to‘lovga qobiliyatliligi va pul oqimlari nomutanosibligi bilan bog‘liq muammolarni yumshatishga xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, tijorat banklarida faktoring xizmatlari shartlarini mijozlarning moliyaviy holati, faoliyat ko‘lami, tarmoq xususiyatlari va individual ehtiyojlariga moslashtirish, eksport faktoringida diskont stavkalarini iqtisodiy jihatdan asoslangan holda hisoblash hamda mijozlarni tegishli mezonlar asosida segmentlash faktoring xizmatlarining samaradorligi va ommabopligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.Jahon amaliyoti ham ushbu yo‘nalishning barqaror rivojlanayotganini ko‘rsatadi. FCI ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda jahon faktoring aylanmasi ilk bor 4 trln yevrodan oshib, 4039 mlrd yevroni tashkil etgan va 2024-yilga nisbatan 3,7 foizga o‘sgan [5]. Mamlakatimizda esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-avgustdagi PF-109-son Farmoni faktoring xizmatlari bozorini jadal rivojlantirishning huquqiy va institutsional asoslarini yaratdi [1]. Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, faktoring xizmatlari hajmi 2024-yildagi 1,9 trln so‘mdan 2025-yilda 9,5 trln so‘mga yetgan, shundan 642 mlrd so‘mi xalqaro faktoringga to‘g‘ri kelgan [3].

Shu bilan birga, bozor o‘sishi bir qator tarkibiy xususiyatlar bilan kechmoqda. Bir tomondan, xalqaro faktoring operatsiyalarining katta qismi shartnomaviy muddatdan ancha qisqa davrda yakunlanadi, biroq amaliyotda diskont ko‘pincha oldindan belgilangan muddat uchun qat’iy stavkada hisoblanadi. Ikkinchi tomondan, faktoring xizmatlarining asosiy qismi yirik mijozlarda jamlangan bo‘lib, kichik va o‘rta biznes subyektlari ushbu vositadan hali yetarlicha foydalanmayapti.

Mazkur maqolaning maqsadi tijorat banklarida faktoring xizmatlari shartlarini mijozlarning haqiqiy ehtiyojlariga moslashtirishning ikki yo‘nalishini - eksport faktoringida diskontni haqiqiy davr bo‘yicha hisoblash tartibini va mijozlarni segmentlash mexanizmini ilmiy-uslubiy jihatdan asoslash hamda ularning bank amaliyotidagi dastlabki natijalarini baholashdan iborat.

Adabiyotlar sharhi

Faktoringning iqtisodiy mohiyati va narxlanishiga oid tadqiqotlarda debitorlik xatari va axborot assimetriyasiga alohida e’tibor qaratiladi. B.Sopranzetti faktor debitorlik qarzlarini baholashda mijozga nisbatan axborot ustunligiga ega bo‘lishi mumkinligini va faktoring qiymati ushbu axborot hamda qarzdorning to‘lov intizomi bilan bog‘liqligini asoslagan [10]. B.Summers va N.Wilson korxonalarning faktoringdan foydalanish qarori xizmat narxi bilan tijorat kreditini boshqarish xarajatlari o‘rtasidagi nisbatga bog‘liqligini empirik jihatdan ko‘rsatgan [11]. Ushbu yondashuvlardan kelib chiqadiki, faktoring narxi mijoz uchun moliyalashtirishning haqiqiy qiymatini qanchalik aniq aks ettirsa, xizmat shunchalik jozibador bo‘ladi.

L.Klapper faktoringning kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirishdagi afzalligini moliyalashtirish qarori qarz oluvchining emas, balki qarzdorning kredit layoqatiga asoslanishi bilan izohlaydi [7]. M.Bakker, L.Klapper va G.Udell rivojlanayotgan mamlakatlar misolida faktoring axborot shaffofligi past bo‘lgan kichik korxonalar uchun muhim moliyalashtirish manbai bo‘lishi mumkinligini qayd etgan [6]. K. van der Vliet va hammualliflar moliyalashtirish stavkasi bilan to‘lov muddati o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni o‘rganib, moliyalashtirish shartlari to‘lov tsikli bilan uyg‘unlashtirilmagan holatda faktoring afzalliklari kamayishi mumkinligini ko‘rsatgan [12]. P.Kouvelis va F.Xu esa faktoring qiymati yetkazib beruvchining moliyaviy cheklovlari va xaridorning kredit sifati bilan belgilanishini nazariy jihatdan asoslagan [8].

Xalqaro faktoringda narx shakllanishining o‘ziga xos jihatlari FCI tomonidan qabul qilingan Xalqaro faktoringning umumiy qoidalarida (GRIF) eksport va import faktorlari o‘rtasidagi majburiyatlar taqsimoti orqali tartibga solinadi [4]. Mijozlarni segmentlash masalasi esa marketing va bank xizmatlari nazariyasida bir xil ehtiyoj va xatar darajasiga ega guruhlarni ajratib, ularga moslashtirilgan mahsulot taklif etish vositasi sifatida ko‘rib chiqiladi [13].

Mahalliy tadqiqotlarda faktoring asosan bank xizmatlarining bir turi sifatida, uning huquqiy asoslari va rivojlanish muammolari nuqtai nazaridan o‘rganilgan. Biroq, fikrimizcha, eksport faktoringida diskontni hisoblash tartibi va mijozlarni faktoringga bo‘lgan ehtiyojiga ko‘ra segmentlash masalalari hali yetarlicha tadqiq etilmagan. Mazkur maqola ushbu bo‘shliqni qisman to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik guruhlash, shartli modellashtirish hamda ko‘p mezonli baholash usullaridan foydalanildi. [1; 2; 3; 9].

Tadqiqot ikki bosqichda olib borildi. Birinchi bosqichda eksport faktoringi bo‘yicha amaldagi va taklif etilayotgan diskont hisoblash tartiblari shartli misol asosida taqqoslandi. Bunda xalqaro faktoring bitimlarining muddatlar bo‘yicha taqsimotiga oid Markaziy bank ma’lumotlaridan foydalanildi. Ikkinchi bosqichda mijozlarning faktoringga bo‘lgan ehtiyojini baholovchi indeks ishlab chiqilib, uning asosida mijozlarni segmentlash algoritmi shakllantirildi.

Ta’kidlash joizki, bankning xalqaro faktoring bitimlari bo‘yicha ma’lumotlari shartnomaviy muddat asosida qayd etilganligi sababli haqiqiy foydalanilgan kunlar bo‘yicha batafsil empirik baholashning imkoni cheklangan. Shu bois taklif samarasi shartli misol va bozor ma’lumotlari asosida baholandi, segmentlash mexanizmining natijalari esa bank ma’lumotnomasidagi ko‘rsatkichlar asosida tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar

Eksport faktoringida diskontni haqiqiy davr bo‘yicha hisoblash. Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda xalqaro faktoring xizmatlarining 40 foizi 30 kungacha, 26 foizi 61-90 kunlik va 16 foizi 121-180 kunlik muddatga to‘g‘ri kelgan [3]. Bu ko‘rsatkichlar bitimlarning shartnomaviy muddat bo‘yicha taqsimotini ifodalasa-da, eksport operatsiyalarining sezilarli qismi 180 kundan ancha qisqa davrda yakunlanishini ko‘rsatadi. Amaliyotda esa eksport faktoringi bo‘yicha 180 kungacha bo‘lgan muddat uchun qat’iy diskont stavkasi qo‘llanilgan, ya’ni xorijiy xaridor to‘lovni muddatidan oldin amalga oshirgan taqdirda ham mijoz to‘liq

muddat uchun haq to‘lagan.

Fikrimizcha, bunday tartib mijoz uchun moliyalashtirishning haqiqiy qiymatini oshirib, eksport faktoringining jozibadorligini pasaytirishi mumkin. Shu sababli tadqiqotda diskontni har bir operatsiya bo‘yicha haqiqatda xizmatdan foydalanilgan davr uchun, bankning operatsion xarajatlarini qoplovchi eng kam muddatni hisobga olgan holda hisoblash taklif etildi:

$$D = \frac{A \times r_o \times \max(t_h;\ t_{\min})}{30} \qquad (1)$$

bunda D - diskont summasi; A - moliyalashtirish (avans) summasi; r_o - oylik diskont stavkasi, koeffitsiyentda; t_h - avans berilgan kundan xorijiy xaridor to‘lovi kelib tushgan kungacha bo‘lgan haqiqiy davr, kunlarda; t_{min} - bankning operatsion xarajatlarini qoplash uchun belgilanadigan eng kam muddat (taklifimizga ko‘ra 15 kun).

Mazkur tartibning muhim jihati shundaki, diskont avans berilganda oldindan to‘liq undirilmaydi, balki to‘lov kelib tushgandan so‘ng haqiqiy kunlar bo‘yicha yakuniy hisob-kitob qilinadi. Eng kam muddatning belgilanishi esa bankni juda qisqa muddatli operatsiyalarda xarajatlarini qoplay olmaslik xataridan himoya qiladi. Taklifning mumkin bo‘lgan samarasini shartli misolda ko‘rib chiqamiz (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Eksport faktoringida diskontni hisoblash tartiblarining taqqoslanishi (shartli misol)

To‘lov kelib tushgan kun	Qat’iy tartibda diskont (180 kun), AQSh dollari	Haqiqiy davr bo‘yicha diskont, AQSh dollari	Diskontning kamayishi, barobar	Qat’iy tartibdagi samarali yillik qiymat, foizda	Haqiqiy davr bo‘yicha samarali yillik qiymat, foizda
30	6 000	1 000	6,0	72,0	12,0
60	6 000	2 000	3,0	36,0	12,0
90	6 000	3 000	2,0	24,0	12,0
120	6 000	4 000	1,5	18,0	12,0
180	6 000	6 000	1,0	12,0	12,0

Manba: muallif hisob-kitoblari. Izoh: moliyalashtirish summasi 100 000 AQSh dollari, oylik diskont stavkasi shartli ravishda 1,0 foiz deb olingan; samarali yillik qiymat 30 kunlik oy asosida hisoblangan.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, xorijiy xaridor to‘lovni 60-kuni amalga oshirgan holatda diskont summasi qat’iy 180 kunlik hisobga nisbatan uch barobar, 30 kunlik operatsiyada esa olti barobar kamayadi. Qat’iy tartibda mijoz amalda foydalangan mablag‘ uchun to‘lov qanchalik erta kelib tushsa, shunchalik yuqori samarali yillik qiymat to‘laydi, haqiqiy davr bo‘yicha hisoblashda esa bu ko‘rsatkich barqaror saqlanadi.

Taklif “O‘zmilliybank” AJ amaliyotiga joriy etilgan bo‘lib, natijada mijozlar xorijiy xaridor to‘lovi amalda kelib tushgan kungacha bo‘lgan davr uchungina haq to‘laydigan bo‘lgan [9]. Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, 30 kungacha muddatli operatsiyalar xalqaro faktoringning 40 foizini tashkil etishini inobatga olsak, taklif aynan shu guruhdagi mijozlar uchun sezilarli bo‘lishi mumkin.

Mijozlarni segmentlash asosida maqsadli faktoring xizmatlarini taklif etish. Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, bozor miqyosida faktoring xizmatlarining 73-77 foizi yillik aylanmasi 100 mlrd so‘mdan ortiq bo‘lgan mijozlarga to‘g‘ri keladi [2; 3]. Markaziy bank sharhlarida mijozlar yillik aylanmasi, tarmog‘i va tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha guruhlanadi, biroq bu mezonlar korxonaning faktoringga bo‘lgan ehtiyojini bevosita ko‘rsatmaydi. Shu sababli tadqiqotda ikki bosqichli segmentlash mexanizmi taklif etildi.

Birinchi bosqichda uchta asosiy mezon – debitorlik qarzining yillik tushumga nisbati (k_1), kechiktirilgan to‘lovli sotuv ulushi (k_2) va aylanma mablag‘larga ehtiyojni ifodalovchi moliyaviy

sikl davomiyligi (k_3) asosida mijozning faktoringga ehtiyoj indeksi hisoblanadi:

$$E = 0{,}35 \times n(k_1) + 0{,}35 \times n(k_2) + 0{,}30 \times n(k_3) \qquad (2)$$

bunda E – mijozning faktoringga ehtiyoj indeksi (0–100 ball); $n(k_1)$, $n(k_2)$, $n(k_3)$ – mezonlarning 0–100 ballik shkalaga keltirilgan qiymatlari; 0,35; 0,35; 0,30 – mezonlarning vaznlari. Moliyaviy tsikl davomiyligi tovar-moddiy zaxiralar, debitorlik va kreditorlik qarzlarining aylanish muddatlari orqali aniqlanadi (MT = DIO + DSO − DPO): u qanchalik uzun bo‘lsa, korxonaning aylanma mablag‘larga ehtiyoji shunchalik yuqori bo‘ladi. Mezonlarni ballik shkalaga keltirish chegaralari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Mijozlarning faktoringga ehtiyoj indeksini hisoblash shkalasi

Mezon	0 ball	100 ball	Oraliq qiymatlar
k_1 – debitorlik qarzining yillik tushumga nisbati	5 foiz va undan past	40 foiz va undan yuqori	Chiziqli interpolyatsiya
k_2 – kechiktirilgan to‘lovli sotuv ulushi	10 foiz va undan past	80 foiz va undan yuqori	Chiziqli interpolyatsiya
k_3 – moliyaviy tsikl davomiyligi	15 kun va undan qisqa	120 kun va undan uzun	Chiziqli interpolyatsiya
Ehtiyoj darajasi (E)	40 balldan past – past	60 ball va undan yuqori – yuqori	40–59 ball – o‘rtacha

Manba: muallif ishlanmasi.

Ikkinchi bosqichda ehtiyoj darajasi yuqori va o‘rtacha bo‘lgan mijozlar profil mezonlari – yillik aylanma, asosiy xaridorlar tarkibi va eksport faoliyati bo‘yicha segmentlarga ajratiladi hamda ularga mos mahsulot taklif etiladi (3-jadvalga qarang). Masalan, yillik sotuvi 12 mlrd so‘m, debitorlik qarzi 3 mlrd so‘m bo‘lgan korxonada k_1 = 25 foiz bo‘lib, u 57 ballga to‘g‘ri keladi. Agar kechiktirilgan to‘lovli sotuv ulushi 60 foiz (71 ball), moliyaviy sikl esa 75 kun (57 ball) bo‘lsa, ehtiyoj indeksi E = 0,35 × 57 + 0,35 × 71 + 0,30 × 57 = 61,9 ballni tashkil etadi va korxona yuqori ehtiyojli mijoz sifatida I segmentga kiritiladi.

3-jadval

Faktoring xizmatlari mijozlarining segmentlari va tavsiya etiladigan mahsulotlar

Segment	Profil mezonlari	Tavsiya etiladigan mahsulot	Asosiy shartlar
I. Kichik va o‘rta korxonalar	Yillik aylanma 100 mlrd so‘mgacha; E ≥ 40 ball	Raqamli platforma orqali ichki faktoring	DSO ga mos 15 kunlik muddat; tabaqalashtirilgan komissiya; tezkor moliyalashtirish
II. Yirik xaridorlarning yetkazib beruvchilari	Sotuvning 50 foizdan ortig‘i davlat ulushi mavjud yoki yirik korxonalarga	Teskari faktoring	Narx xaridor xatari asosida; past diskont
III. Eksportchilar	Eksport ulushi 30 foizdan yuqori	Eksport faktoringi	Haqiqiy kunlar uchun diskont; xorijiy valyutada moliyalashtirish
IV. Yirik korxonalar	Yillik aylanma 100 mlrd so‘mdan ortiq	To‘liq xizmatli faktoring	Individual narx; hisob yuritish va undirish xizmatlari

Manba: muallif ishlanmasi. Izoh: mijoz bir nechta segment mezoniga mos kelsa, ustuvorlik III, II, I, IV tartibida belgilanadi.

Ko‘rinib turibdiki, segmentlash mexanizmi eksport faktoringida diskontni haqiqiy davr

bo‘yicha hisoblash taklifi bilan bevosita bog‘liq: eksport ulushi yuqori bo‘lgan mijozlar III segmentga yo‘naltirilib, ularga aynan haqiqiy kunlar bo‘yicha narxlanadigan mahsulot taklif etiladi.

Olingan natijalar faktoring shartlarini mijozning haqiqiy to‘lov tsikli va ehtiyojiga yaqinlashtirish xizmatdan foydalanish qulayligini oshirishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bu xulosa K.van der Vliet va hammualliflarning moliyalashtirish shartlari to‘lov muddati bilan uyg‘unlashtirilganda faktoring afzalliklari to‘liqroq namoyon bo‘lishi haqidagi fikriga mos keladi [12]. Shuningdek, segmentlash mexanizmida narx mijozning emas, balki qarzdorning xatariga tayanishi L.Klapper ta’kidlagan faktoringning asosiy afzalligi bilan uyg‘un [7].

Shu bilan birga, natijalarni talqin qilishda ayrim cheklovlarni hisobga olish lozim. Birinchidan, 1-jadvaldagi hisob-kitoblar shartli parametrlarga asoslangan bo‘lib, real tejam miqdori har bir bankning tarif siyosati, resurs qiymati va xorijiy xaridorlarning to‘lov intizomiga bog‘liq. Ikkinchidan, mijozlar murojaatlari va faktoring hajmining o‘sishiga segmentlash mexanizmi bilan bir qatorda bozorning umumiy o‘sishi ham ta’sir ko‘rsatgan bo‘lishi mumkin. Uchinchidan, bankda bir mijozga o‘rtacha 14,6 mlrd so‘mlik faktoring to‘g‘ri kelishi xizmatlardan hali asosan o‘rta va yirik korxonalar foydalanayotganini ko‘rsatadi.

Fikrimizcha, ehtiyoj indeksidagi vaznlar va normallashtirish chegaralari bozor tarkibi hamda bank amaliyoti asosida belgilangan boshlang‘ich parametrlar sifatida qaralishi, mijozlar bo‘yicha ma’lumotlar to‘planib borgani sari esa ular bank ma’lumotlari asosida kalibrlanishi maqsadga muvofiq. Xuddi shuningdek, haqiqiy davr bo‘yicha diskont hisoblash tartibining samarasini aniqroq baholash uchun xalqaro bitimlar bo‘yicha to‘lovlar amalda kelib tushgan sanalarni tizimli qayd etish foydali bo‘ladi.

Xulosa va takliflar

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

Birinchidan, eksport faktoringi bo‘yicha 180 kungacha bo‘lgan muddat uchun qat’iy diskont stavkasi o‘rniga diskontni har bir operatsiya bo‘yicha haqiqatda foydalanilgan davr uchun, eng kam 15 kunlik muddatni hisobga olgan holda hisoblash tartibi faktoring xizmatlari jarayonlarini optimallashtirish va mijozlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga xizmat qilishi mumkin. Shartli misolga ko‘ra, 60 kunda yakunlangan operatsiyada diskont summasi qat’iy 180 kunlik hisobga nisbatan uch barobar, 30 kunlik operatsiyada esa olti barobar kamayadi. Bunday operatsiyalar xalqaro faktoringning 40 foizini tashkil etishi taklifning amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, mijozlarni debitorlik qarzdorligi hajmi, tovarlarni kechiktirilgan to‘lov asosida sotish ulushi va aylanma mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojidan kelib chiqib segmentlash hamda ularga maqsadli faktoring xizmatlarini taklif etish mexanizmi kichik va o‘rta biznes subyektlari orasida faktoringni ommalashtirish vositasi bo‘lishi mumkin. Mexanizm “O‘zmilliybank” AJ amaliyotiga joriy etilgach, 2026-yilning yanvar–avgust oylarida mijozlar murojaatlari soni 660 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan qariyb 2 barobarga, faktoring operatsiyalari hajmi esa 137 foizga oshgan.

Ushbu tajribani bank tizimida kengroq qo‘llash uchun quyidagilar tavsiya etiladi: birinchidan, tijorat banklarining eksport faktoringi shartnomalarida diskontni haqiqiy kunlar bo‘yicha qayta hisoblash tartibi va eng kam muddatni aniq belgilash; ikkinchidan, elektron faktoring platformalarida muddatni kunlar aniqligida tanlash va diskontni haqiqiy kunlar bo‘yicha avtomatik hisoblash funksiyalarini bosqichma-bosqich joriy etish; uchinchidan, banklarda faktoringga ehtiyoj indeksini mijozlarni aniqlash va ularga mahsulot taklif etish jarayoniga kiritish, indeks parametrlarini esa to‘plangan ma’lumotlar asosida muntazam kalibrlab borish zarur

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-avgustdagi “Faktoring xizmatlari bozorini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–109-son Farmoni. –

https://lex.uz/docs/-7061653

2. Central Bank of the Republic of Uzbekistan. Factoring Services Market Review. Q1 2026. – Tashkent, 2026. – https://cbu.uz/en/press_center/releases/3932945/

3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Faktoring xizmatlari bozori sharhi. 2025-yil yakuni bo‘yicha. – Toshkent, 2026. – https://cbu.uz/uz/press_center/releases/3564812/

4. FCI. General Rules for International Factoring (GRIF). – Amsterdam: FCI. – https://fci.nl

5. FCI Releases 2025 World Industry Statistics as Global Factoring Market Surpasses €4 Trillion. – Amsterdam: FCI, 05.05.2026. – https://fci.nl/en/news

6. Bakker M., Klapper L., Udell G. Financing small and medium-size enterprises with factoring: global growth and its potential in Eastern Europe // World Bank Policy Research Working Paper. – 2004. – No. 3342.

7. Klapper L. The role of factoring for financing small and medium enterprises // Journal of Banking & Finance. – 2006. – Vol. 30, No. 11. – P. 3111–3130.

8. Kouvelis P., Xu F. A supply chain theory of factoring and reverse factoring // Management Science. – 2021. – Vol. 67, No. 10. – P. 6071–6088.

9. Sopranzetti B. J. The economics of factoring accounts receivable // Journal of Economics and Business. – 1998. – Vol. 50, No. 4. – P. 339–359.

10. Summers B., Wilson N. Trade credit management and the decision to use factoring: An empirical study // Journal of Business Finance & Accounting. – 2000. – Vol. 27, No. 1–2. – P. 37–68.

11. Van der Vliet K., Reindorp M. J., Fransoo J. C. The price of reverse factoring: Financing rates vs. payment delays // European Journal of Operational Research. – 2015. – Vol. 242, No. 3. – P. 842–853.

12. Wedel M., Kamakura W. A. Market Segmentation: Conceptual and Methodological Foundations. – 2nd ed. – Boston: Kluwer Academic Publishers, 2000.